

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2020. I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AZADOVA BONUPOSSHA ALISHER QIZI

**VINOCHILIK KORXONALARI FAOLIYATIDA MARKETING
STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 659.1:658:658.2(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on economics sciencies**

Azadova Bonuposhsha Alisher qizi

Vinochilik korxonalari faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni
takomillashtirish
3

Азадова Бонупошша Алишеровна

Совершенствование использования маркетинговых стратегий в деятельности
винодельческих предприятий.....27

Azadova Bonuposhsha Alisher kizi

Improving the use of marketing strategies in the activities of
wineries.....52

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2020. I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AZADOVA BONUPOSSHA ALISHER QIZI

**VINOCHILIK KORXONALARI FAOLIYATIDA MARKETING
STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Iqt158 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Eshov Mansur Po'latovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Karriyeva Yakutjan Karimovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rahmatov Ziyodulla Nosirovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent kimyo texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72); faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi)

G.K. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Sh.A. Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda vinochilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari sifatida ijtimoiy yoʻnaltirilgan marketing konsepsiyalari asosida mijozlar xulq-atvor xususiyatlariga moslashuvchan taʼsir mexanizmlaridan foydalanish, barqaror rivojlanish tamoyillarini qoʻllash va isteʼmolchilar segmentining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda axloqiy tamoyillardan foydalanish va xalqaro bozorlarda yuqori isteʼmol qiymatiga ega mahsulotlar bilan eksportni oshirishga eʼtibor qaratilmoqda. “2023-yilda 385 milliard dollarga baholangan global vino mahsulotlari bozori 2030-yilga kelib 528,3 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2023-2030 yillardagi oʻrtacha oʻsish surʼati 4,6 foizni tashkil etishi kutilmoqda”¹. Bozor oʻsishining asosiy omili katta yoshli isteʼmolchilarning orasida past kaloriyali alkogolli ichimliklar isteʼmolining oʻsishi, turizm obyektlari, restoranlar, koʻngilochar klublar, dam olish maskanlarining koʻpayishi bilan birga talabni yanada oshirmoqda. Vino mahsulotlari bozorining barqaror oʻsib borishi korxonalar uchun raqobatda ustunlik va barqarorlik tamoyillari asosida marketing strategiyalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Jahonda global raqobat kuchayib borishi hamda raqobat muhitini keskinlashuvi sharoitida vino mahsulotlari bozorida marketingning turli zamonaviy strategiyalaridan foydalanish muammolari tadqiqiga oid koʻplab izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, vinochilik korxonalarini tomonidan mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarga asoslangan strategik marketing vositalaridan foydalanish, raqobatda ustunlikni taʼminlashning innovatsion yondashuvlarni qoʻllash, mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish, global brandingda axloqiylik prinsiplaridan foydalanish, yashil marketing innovatsiyalari asosida qoʻshilgan qiymat yaratish masalalari bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Oʻzbekistonda vinochilik industriyasini xalqaro bozorlarda barqaror ustunligini taʼminlay oladigan marketing strategiyalarini ishlab chiqish, yuqori sifatli va qoʻshilgan qiymatli vinochilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarda erkin raqobatlasha oladigan mahsulot turlarini yaratishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatda yuqori sifatli oʻzbek milliy vino brendlarini turopoperatorlar orasida keng targʻib qilish va yangi turizm yoʻnalishlariga kiritish choralarini koʻrish, “VINE Uzbekistan” brendi ostida Rossiya, Xitoy va Qozogʻistonda vino mahsulotlari eksportini rivojlantirish, kam quvvatli va tabiiy vino ichimliklariga jamoatchilikning qiziqishini oshirish vazifalari belgilab berilgan². Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi onlayn savdo faoliyatida qoʻllaniladigan SMM, SEO strategiyalarining ustuvor gʻoyaviy maqsadlarini korxonalarining kam quvvatli va tabiiy vino ichimliklariga jamoatchilikning qiziqishini oshirishga qaratilishi, vino mahsulotlari korxonalarining mahalliy va xorijiy bozorlarga chuqur kirib borish va egallashga qaratilgan brandingning tarkibiy elementlari boʻlgan qadoqlash, savdo markasini ilgari surish va assortiment siyosatini yuritish borasida oʻzaro munosabatlar yaratish

¹ <https://www.marknteladvisors.com/research-library/wine-market.html>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-son “2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/6555121>

orqali takomillashtirish, taqqoslama baholash orqali vinochilik korxonalarining iste'mol xususiyatlariga moslashuvchan barqaror rivojlanishning ijtimoiy-axloqiy marketing dastklarini taklif etish, import qiluvchi mamlakatlarning ichki standart talablariga moslashuvchan mahsulot diversifikatsiyasini nisbiy raqobatda ustunlik nuqtayi-nazaridan aniqlab, intensiv va ekstensiv o'sish strategiyalari o'rtasidagi optimal nisbatni asoslash, vinochilik mahsulotlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish orqali eksport hajmini ko'paytirish, vinochilik korxonalari faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2023-yil 28-dekabrda PF-217-son “Iste'mol bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 5-fevraldagi PF-5656-son “Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish hamda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari, 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-son “2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”, 2019-yil 5-fevraldagi PQ-4161-son “O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Vinochilik korxonalari faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijlik olimlarning ilmiy ishlanmalarida o'z aksini topgan. Bu borada Levitskaia A., Ianioglo N., Curaxina S., Costa A.M., Monteiro B., Silva S., Finotto V., Mauracher C., Begalli D., Codurri S., Gaeta D., Viana N.A., Cerquetti M., Romagnoli A., Fait M., Iazzi A., Trio O., Iaia L., Martinho V.J. va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar³. Ushbu uzoq xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan vino

³ Levitskaia, A., Ianioglo, N., & Curaxina, S. (2020). Marketing Strategy in Wine Tourism: Tradition Versus Innovation. *Marketing and Digital Technologies*, 4(3), 6–12.; Costa, A. M., Monteiro, B., & Silva, S. (2021). Wine tourism and digital marketing strategies in the vinho verde region. In *Proceedings of the International Conference on Tourism Research* (pp. 119–126). Academic Conferences and Publishing International Limited. <https://doi.org/10.34190/IRT.21.034>; Finotto, V., & Mauracher, C. (2020). Digital marketing strategies in the Italian wine sector. *International Journal of Globalisation and Small Business*, 11(4), 373–390.; Begalli, D., Codurri, S., & Gaeta, D. (2009). Wine and web marketing strategies: The case study of Italian speciality wineries. *British Food Journal*, 111(6), 598–619.; Viana, N. A. (2016). Digital wine marketing: Social media marketing for the

mahsulotlari bozorida marketing miks strategiyalaridan foydalanish, raqamli marketing orqali mijozlar bilan munosabatlar o'rnatish borasida yuqori ilmiy natijalarga erishilgan bo'lsada, mahalliy vino mahsulotlari bozorida mijozlar xulq-atvorini tadqiq qilish va mahsulotlar eksportini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Romanova M., Zvyagin S., Nazarenko V., Kaufman A., Lujanova V., Akulich L., Arutyunova V. va boshqalarning ilmiy ishlarida uzum-vinohiligi sanoatida marketingga doir masalalar o'rganilgan⁴. Mazkur tadqiqotlarda vinohilik va alkogolli mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda samarali ilgari surishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, iste'molchilarning vino iste'moli va xarid jarayonlaridagi xulq-atvor xususiyatlari, jumladan, iste'molchilarning turli segmentlariga xos bo'lgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalalari o'rganilmagan.

O'zbekistonning iqtisodchi olimlaridan Y.K.Karriyeva, A.S.Soliyev, M.A.Ikramov, M.K.Pardayev, L.T.Abduxalilova, Sh.Dj.Ergashxodjayeva, M.Qosimova, Z.A.Xakimov, T.A.Akramov va boshqalar marketing fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar⁵. Bu mualliflar asosan iste'mol tovarlarini bozorlarda ilgari surishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha keng tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, vinohilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Vinohilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyalaridan foydalanishning ayrim jihatlari D.X.Sapayev, D.M.Usmonova, S.S.Odilova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁶.

wine industry. BIO Web of Conferences, 7, 03011. <https://doi.org/10.1051/bioconf/20160703011>; Cerquetti, M., & Romagnoli, A. (2023). Milieu and cultural heritage as a resource for digital marketing: exploring web marketing strategies in the wine industry. *Corporate Governance and Organizational Behavior Review*, 7(3 Special Issue), 347–364.; Fait, M., Iazzi, A., Trio, O., & Iaia, L. (2013). Social web communication and CRM in the marketing strategies of wine enterprises. *Journal of Economic Behavior*, 3, 103–116.; Martinho, V.J.P.D. (2021). Contributions from literature for understanding wine marketing. *Sustainability (Switzerland)*, 13(13). <https://doi.org/10.3390/su13137468>

⁴ Романова К.М. Средиземноморские субрегиональные реалии лингвокультурной сферы «Виноделие»: на материале итальянского, испанского и французского языков: дис. канд. филологических наук.: 10.02.20/ Романова Ксения Михайловна; Уральский гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2008. 222 с.; Звягин А.С. О происхождении дикого и культурного винограда / А.С. Звягин, Л.П. Трошин // Труды Кубанского государственного аграрного университета. – 2010. - № 25. Назаренко А.В. Функционирование и развитие рынка виноградо-винодельческой продукции АПК России. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ставропольский государственный аграрный университет. 2019 г. – С. 26.; Кауфман М.А. “Социально-экономическая стратегия регулирования рынка алкогольной продукции в России” Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Российская Академия наук, Институт экономики. Москва, 2006 г. – С. 133-134.; Лужанова Н.В. “Стратегическое маркетинговое управление”: учебник. Министерство образования и науки Российской Федерации, Оренбургский Государственный университет. – Оренбург: ОГУ, 2017. С. 189.; Арутюнова, Д. В. Стратегический менеджмент: учеб. пособие / Д. В. Арутюнова – Таганрог: Издательство ТТИ ЮФУ, 2010. – 122 с. – ISBN 5-16-000487 – 4.; Акулич И.Л. Маркетинг. – М.: “Высшая школа”, 2010.

⁵ Karriyeva Y.K. Xalqaro marketing. O'quv qo'llanma. “Fan” nashriyoti. 2005. A.C. Солиев. Маркетинг. Бозоршунос-лик. Дарслик. – 2010 йил.; М.А. Икромов, М.К. Пардаев, Л.Т. Абдухалилова. Маркетинг тадқиқотларида статистик таҳлил. – Т.: «Sano-standart», 2019; Ergashxodjayeva Sh.DJ. Strategik marketing. Darslik. – Т.: «Sano-standart», 2019. – 232 b.; Qosimova M. va boshq. Strategik marketing. O'quv qo'llanma. – Т. O'qituvchi – 2004. – 215 b.; З.А. Хакимов. Енгил sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. ТДИУ, и.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси. 2018 йил. – 149 бет.; Т.А. Акромов. Marketing Ijtimoiy-iqtisodiy tadbirkorlik – biznesga ixtisoslashgan ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. “Avtomobil sanoati korxonalarida marketing strategiyasini ishlab chiqishning metodologiyasi”. 2024-yil Aprel, 2-son.

⁶ Сапаев Д.Х. “Роль маркетинга в моделировании развитии виноградно-винодельческого кластера” ТФИ. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor 2020 г. – С. 451.*; Usmonova D.M. Uzumchilik korxonalarining eksport salohiyatini

Shuningdek, vinochilik sohasini kelgusida yanada barqaror rivojlantirish, vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish va ichki bozorda samarali ilgari surishga qaratilgan hamda iste'molda axloqiy marketing tamoyillaridan va strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar tizimli ravishda amalga oshirilmagan. Dissertatsiya vinochilik korxonalarini faoliyatida marketingning zamonaviy strategiyalari hisoblangan, axloqiy marketing, eksportni diversifikatsiyalash va raqamli marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib vinochilik korxonalarini faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

vinochilik korxonalarining bozor faoliyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning ahamiyati va zaruratini asoslash;

vinochilik korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va ustuvor strategik yo'nalishlarni aniqlash;

vinochilik mahsulotlari bozorida zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlarini tasniflash;

jahon vino mahsulotlari bozorida yetakchi mamlakatlarning marketing strategiyalaridan foydalanish tajribalaridan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekiston vinochilik mahsulotlari bozorida raqobat muhiti va bozor subyektlari faoliyatini tahlil qilish;

vinochilik mahsulotlari bozorida mijozlar xulq-atvori tadqiq qilish va axloqiy marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

vinochilik sohasini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish orqali kam quvvatli va tabiiy vino ichimliklariga jamoatchilikning qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston vinochilik mahsulotlari eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbekiston shampani" aksiyadorlik jamiyatining marketing faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti vinochilik korxonalarini faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish. Iqt. fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferat. – T.: – 2021. Odilova S.S. Meva sharbatlari brendinishakllantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish. Iqt. fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferat. –T.: 2022.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, statistik tahlil, omilli tahlil, so‘rov, tanlanma kuzatuv, indeksli va balans tahlil, diskriminant usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vino mahsulotlari korxonalarining mahalliy va xorijiy bozorlarga chuqur kirib borish va egallashga qaratilgan brendingning tarkibiy elementlari bo‘lgan qadoqlash ($B_q = 0,37$), savdo markasini ilgari surish ($B_{sm} = 0,41$) va assortiment siyosatini yuritish ($B_{as} = 0,22$) mizojlarning mahsulot ingrediylentlari haqida tushunchalarni to‘liq olish imkonini beradigan tarzda o‘zaro munosabatlar yaratish orqali takomillashtirilgan;

O‘zbekistonning vino mahsulotlari eksporti uchun eng qulay mamlakatlar sifatida belgilangan eksport faoliyatini diversifikatsiyalash bo‘yicha tavsiya etilgan (5B – 97,5%; 4B – 0,60%; 3B – 0,80%; 2B – 0,90%, 1B – 0,18%) guruhlar bo‘yicha eksportning ekstensiv o‘sishga yo‘naltirilgan diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash taklifi asoslangan;

O‘zbekiston vinochilik mahsulotlari tovarlari assortimentining ayrim guruhlari uchun nisbiy ustunliklarni aniqlashda vinochilik korxonalarini uchun ’2208 – alkogollilik darajasi <80% bo‘lgan denaturatsiyalanmagan etil spirti; spirtli ichimliklar, likyorlar va boshqa spirtli ichimliklar; ’2202 – suvlar, shu jumladan, shakar yoki boshqa ingrediylentlar qo‘shilgan mineral suvlar va gazlangan suvlar; ’2201 – suvlar, shu jumladan, tabiiy yoki sun‘iy mineral suvlar va gazlangan suvlar, tarkibida qo‘shimchalar bo‘lmagan suvlar turlari asosida diversifikatsiyalash imkoniyati mavjudligi asoslangan;

O‘zbekistonda uzumzorlardan olinayotgan yalpi hosil hajmining ko‘p omilli ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

vino mahsulotlari bozorida qo‘llaniladigan marketingning eng samarali taktikalarining tizimlashtirilgan klasteri taklif etilgan;

iste‘molchilarning vino mahsulotlari brendiga ishonchini oshirishda raqamli marketingning SMM va SEO strategiyalarining optimal usullaridan foydalanish taklifi asoslangan;

vinochilik mahsulotlari bozorida qo‘llaniladigan ijtimoiy media marketingning targetlash jarayoni iste‘molchilarning yosh, jins, joylashuv, daromad va xulq-atvor xususiyatlariga ko‘ra amalga oshirish muqobil yondashuv ekanligi asoslangan;

vino mahsulotlari iste‘molchilarining iste‘mol darajalariga ko‘ra guruhlari aniqlanib, barcha guruhlar uchun marketing kommunikatsiyalari va ijtimoiy ta‘sir vositalari aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari ishonchliligi ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish, vinochilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining brendlar raqobatbardoshligini oshirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, axborotlar bazasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarini uyushmasi va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari asosida shakllanganligi va ularning samarali tahlili,

jumladan, “SPSS statistics” dasturlash tizimidan foydalanish orqali qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan vinochilik korxonalarida marketing strategiyasidan foydalanishni o‘ziga xos jihatlarni aniqlash, korxonalarining raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va bu borada maxsus strategik dasturlarni shakllantirish hamda “O‘zbekiston shampani” AJ korxonasiining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan maqsadlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston vinochilik korxonalarini uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish va raqobatbardoshligini oshirishda, shuningdek, “Strategik marketing”, “Innovatsion marketing” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Vinochilik korxonalarini faoliyatida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

vino mahsulotlari korxonalarining mahalliy va xorijiy bozorlarga chuqur kirib borish va egallashga qaratilgan brendingning tarkibiy elementlari bo‘lgan qadoqlash ($B_q = 0,37$), savdo markasini ilgari surish ($B_{sm} = 0,41$) va assortiment siyosatini yuritish ($B_{as} = 0,22$) mizojlarning mahsulot ingrediylentlari haqida tushunchalarni to‘liq olish imkonini beradigan tarzda o‘zaro munosabatlar yaratish orqali takomillashtirish taklifi “O‘zbekiston shampani” AJ faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston shampani” AJning 2024-yil 7-fevraldagi 1-2/213-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zbekiston shampani” AJning 2023-yildagi savdolari hajmini 2022-yilga nisbatan 2,3 %ga oshirishga erishilgan;

O‘zbekistonning vino mahsulotlari eksporti uchun eng qulay mamlakatlar sifatida belgilangan eksport faoliyatini diversifikatsiyalash bo‘yicha tavsiya etilgan (5B – 97,5 %; 4B – 0,60 %; 3B – 0,80 %; 2B – 0,90 %, 1B – 0,18 %) guruhlar bo‘yicha eksportning ekstensiv o‘sishga yo‘naltirilgan diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash taklifi “O‘zbekiston shampani” AJ faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston shampani” AJning 2024-yil 7-fevraldagi 1-2/213-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-yilda “O‘zbekiston shampani” AJ brendining tanilganligi 12 %ga oshgan;

O‘zbekiston vinochilik mahsulotlari tovarlari assortimentining ayrim guruhlari uchun nisbiy ustunliklarni aniqlashda vinochilik korxonalarini uchun ’2208 – alkogollilik darajasi <80% bo‘lgan denaturatsiyalanmagan etil spirti; spirtli ichimliklar, likyorlar va boshqa spirtli ichimliklar; ’2202 – suvlar, shu jumladan, shakar yoki boshqa ingrediylentlar qo‘shilgan mineral suvlar va gazlangan suvlar; ’2201 – suvlar, shu jumladan, tabiiy yoki sun‘iy mineral suvlar va gazlangan suvlar, tarkibida qo‘shimchalar bo‘lmagan suvlar turlari asosida diversifikatsiyalash imkoniyatidan foydalanish taklifi “O‘zbekiston shampani” AJ faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston shampani” AJning 2024-yil 7-fevraldagi 1-2/213-son

ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston vino ishlab chiqaruvchilari global sharoit va iste'mol tendensiyalariga moslashgan holda eksport bozorlari uchun mos keladigan 10 dan ortiq vino mahsulotlari assortimenti shakllantirilgan va ularni 2023-yildagi eksporti amalga oshirilib, "O'zbekiston shampani" AJning mahsulot eksporti 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 5,9 foizga oshirishga erishilgan;

O'zbekistonda uzumzorlardan olinayotgan yalpi hosil hajmining ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zbekiston shampani" AJ faoliyatida foydalanilgan ("O'zbekiston shampani" AJning 2024-yil 7-fevraldagi 1-2/213-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yalpi hosil hajmining ko'p omilli ekonometrik modeli asosida mamlakatda uzum yetishtirishning uzoq muddatli istiqboldagi faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlashtirish hamda asosiy parametrlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Vinochilik korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, vinochilik korxonalari faoliyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati yoritilgan. Vinochilik korxonalarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari o‘rganilgan. Vinochilik mahsulotlari bozorida zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlanib ular tasniflangan.


Vinochilik tarmog‘i jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida mazkur sohaga ixtisoslashgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘shishga, bandlikka, xalqaro savdoga va turizmga hissa qo‘shadi, shu bilan birga turli mintaqalarda madaniy va ijtimoiy jihatdan yuqori ahamiyatga egadir. Biroq, ko‘plab sohalar singari, vinochilik ham global bozorda rivojlanish uchun moslashish va innovatsiyalarni talab qiladi va bu borada aniq strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ko‘plab strategik yondashuvlar mavjud. Vinochilik bozori global oziq-ovqat tizimining ajralmas qismi hisoblanib, ko‘plab mamlakatlar ushbu tarmoqqa keng ixtisoslashgan. Jumladan,

O‘zbekistonda ham mazkur sohani rivojlantirishda boshqa mamlakatlar kabi keng bozor imkoniyatlari mavjud bo‘lib, jahon bozorlarida raqobatdosh ustunliklarni ta‘minlash uchun samarali marketing strategiyalari zarurdir.

Vinochilikni rivojlantirishda marketing strategiyalarini qo‘llashdan asosiy maqsad mavjud bo‘lgan xaridorlarni ushlab qolish, iste‘molchilar sonini kengaytirish, sotuv hajmini oshirish, xorijiy mamlakatlarga qilinayotgan eksportni kengaytirishni nazarda tutadi.

Vinochilik sanoati agrar iqtisodiyotning tarmoq tarkibiy qismi bo‘lgan holda, umumiy iqtisodiy tizimning organik qismi hisoblanadi. Vinochilikni kompleks sifatida davlat va biznes manfaatlari muvozanatlashgan holda yanada samarali rivojlantirish mumkin. Vinochilik faoliyatini tahlil qilish borasida rivojlangan mamlakatlar tajribasi rejalashtirish va modellashtirishni amalga oshirish samaradorligini ko‘rsatdi. Vinochilikni rivojlanishi mintaqaning iqlim sharoitiga, mintaqaning salohiyatiga, shu jumladan, raqobatbardosh uzum navlarini yetishtirish qobiliyatiga, mehnatga, innovatsion daraja va boshqalarga bog‘liq.

Vinochilik sanoatida marketing strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar asosida zamonaviy vinochilik bozorida keng qo‘llanilayotgan marketing strategiyalari tasniflangan va bu 1-rasmda aks etgan.



⁷ Muallif ishlanmasi.

Marketing strategiyasini qo'llash tarmoq va sohalarning yo'nalishlariga qarab turlicha bo'ladi. Jumladan, vino biznesi onlayn savdoning afzalliklaridan sezilarli darajada foydalanish imkoniyati mavjudligi va ijtimoiy tarmoqlarda ham ularni tatbiq etish orqali mijozlarda mahsulotga nisbatan afzalliklar yaratish imkoniyati mavjud. Xorijda vino mahsulotlarini onlayn do'konlar orqali sotish amaliyoti mavjud. Vengriya davlatida vino mahsulotlarini sotish tizimi onlayn sotuv orqali amalga oshirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Samarali bo'lmagan marketing strategiyalari biznesning raqobatdosh ustunligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday bo'lmashligining asosiy sabablaridan bir kichik biznes rahbarlari ijtimoiy media marketing strategiyalarini o'rganishi zarur. Vino sanoati brend xabardorligini oshirish va raqobatdosh ustunlikni oshirish uchun bu strategiyadan foydalanadi. Ushbu strategiyadan foydalanganlardan biri Michigandagi sanoat korxonasi ijtimoiy media marketing strategiyalaridan samarali foydalangan.

Jahon vino sanoati (AQSH, Avstraliya, Chili, Argentina, Janubiy Afrika) yetakchilari hisoblanmagan mamlakatlarning vino mahsulotlari dunyosi deb ataladigan global bozorlarga tez kirib borish tajribasi mavjud. Ular jahon bozorining katta ulushini muvaffaqiyatli egallashi, asosan, o'z mamlakati hududida sanoatni tashkil etishga yondashuvi, shuningdek, vinochilik sohasining faol yagona marketing siyosati yordamida ta'minlanadi. Vinochilik sohasini shakllantirishning eng muhim mezonini uning mintaqaviy ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir darajasi hisoblanadi.

Xalqaro tajribalarga asoslanganda vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqarishini tashkil etishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim, ya'ni:

- raqobatbardosh uzum navlarini yetishtirishning mintaqaviy xususiyatlari;
- bozor navlari va uzum turlariga talab hajmini prognoz qilish modelini yaratish;
- sohani strategik rivojlantirish modelini yaratish;
- korxonalar rivojlanishining marketing strategik modelini yaratish;
- tayyor mahsulot sifatini baholash tizimini takomillashtirish.

Marketing strategiyasi vinochilik sanoatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Vinolarni, vinochilik va uzumzorlarni samarali targ'ib qilish va sotish uchun turli marketing usullari va strategiyalarini qo'llash kerak. Asosan, marketing strategiyasi – bu korxonalar ko'rinishini va natijada daromadlarini oshirish uchun foydalaniladigan umumiy rejadir. Bu kuchli brend identifikatorini yaratishdan tortib innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishgacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga olishi mumkin. Muvaffaqiyatli marketing strategiyalari aniq maqsad va vazifalarga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Yuqoridagilar inobatga olinib, quyidagi zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanish talab etiladi: kontent marketingi, ijtimoiy media marketingi, qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO), elektron pochta marketingi va axborot byulletenlari, ommaviy axborot vositalari va PR bilan shug'ullangan, ochilish sahifalari, onlayn reklama, hamkorlik marketingi, retargeting.

Qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO) vino zavodlari uchun ularning onlayn mavjudligini Google kabi qidiruv tizimlari uchun optimallashtirilganligini ta'minlash uchun juda muhimdir. SEO strategiyalarini amalga oshirish orqali vinochilik korxonalarini o'zlarining onlayn ko'rinishini yaxshilashlari, ko'proq organik trafikni jalb qilishlari va oxir-oqibat savdo va brend xabardorligini oshirishlari mumkin.

Ijtimoiy media marketingi orqali vinochilik korxonalari o'z mahsulotlarini targ'ib qilish va savdo va brendga sodiqlikni oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu odamlarni brend haqida gapirishga undash, brend yaratish, brendni ijobiy tarzda ifodalashga, shaxsiyat, falsafa, qadriyatlar va mahsulotlarni targ'ib qilishga, brend xabardorligini yaratish va sotishni oshirishga yordam beradi. Aloqa vositasi orqali vino sotadi, raqamli vino marketingi yo'lga qo'yiladi va brendga sodiqlikni oshirish san'ati paydo bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda vinochilik korxonalarining marketing strategiyalaridan foydalanish holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida jahon vinochilik bozorining rivojlanishi va unda O‘zbekistonning o‘rni ishtiroki tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlar vinochilik korxonalarining marketing strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha tajribalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. O‘zbekiston vinochilik bozorining rivojlanishi va undagi raqobat muhiti tahlil qilingan. Vinochilik mahsulotlari bozorida mijozlar xulq-atvori tadqiq qilinib, axloqiy marketing vositalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Vinochilik sohasi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida katta o‘ringa ega. Amerika vino sanoati AQSH iqtisodiyotining dinamik qismi bo‘lib, mahsulot hajmi taxminan 276,07 milliard dollarni yoki YAIMning 1,28 foizini tashkil qiladi. Unda taxminan 95,50 milliard dollarlik ish haqi va nafaqa oladigan 1,84 million amerikalik ishlaydi⁸. Xalqaro uzum va vino tashkiloti (OIV) tomonidan e‘lon qilingan so‘nggi hisob-kitoblarga ko‘ra, 2022-yilda jahon vino ishlab chiqarish 259,9 million gektolitni tashkil qiladi. Unga ko‘ra hajmi 2021-yil bilan deyarli teng, so‘nggi prognozlarga ko‘ra 262 million dollarni tashkil etgan⁹.


Iste‘moldagi vinoning har xil turlari mavjud, jumladan, kolleksion maxsus vino, qaynar vino, yetishtirilgan tabiiy vino, gazlangan vino, mevali vino, brendi va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasida 42 ta alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda 72 ta uzum xomashyosini qayta ishlash punktlari mavjud, shuningdek, ushbu korxonalardan 16 tasi tabiiy vino ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar faoliyat yuritadi. Vino, meva vinolari va konyak mahsulotlarining eksport geografiyasi Kongo, Litva, Italiya, Chexiya, Turkiya, Armaniston, Gruziya, Hindiston, Mo‘g‘uliston, Isroil va Ispaniya kabi davlatlar hisobiga kengayib bormoqda. So‘nggi yillarda vino ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda uskuna va texnologiyalarni yangilash, marketing va assortiment siyosati, logistika hamda qadoqlashga jiddiy e‘tibor qaratilgan.

Jahonda va O‘zbekistonda vinochilik sohasidagi qonunchilik hujjatlari va strategik hujjatlar to‘plamlarida va xalqaro strategik rivojlantirish dasturida asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratilgan: ekologik toza uzumchilikni targ‘ib qilish; uzumchilik orqali ijtimoiy taraqqiyotga ko‘maklashish; uzumchilik sektorida tengsizlikni kamaytirish; ilmiy tadqiqot laboratoriyalarining o‘zaro taqqoslanadigan uslublarini ta‘minlash; mavjud standartlar va amaliyotlarni xalqaro darajada kelishib olish; uzum xom ashyosi va vino materiallarini ishlab chiqarish va sotish

⁸ <https://www.bkwine.com/features/more/important-wine-country-economy/>

⁹ <https://www.vitisphere.com/news-97949-france-ranks-world-champion-for-growth-in-wine-production-in-2022-.html>

jarayonlarini modernizatsiya qilish maqsadida yangi standartlarni ishlab chiqish; vino mahsulotlarini tamg'alash va taqdim etish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.



2-rasm. Vinochilik mahsulotlari bozorida brend strategiyasini amalga oshirish bosqichlari¹⁰

¹⁰ Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish orqali muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilar bilan birga, mahalliy bozorda faoliyat yurituvchi kompaniyalar vino mahsulotlari sifati va assortimenti bo'yicha va ularning alkogollik tarkibi bo'yicha faqat vino qadoqlaridagina mijozlar bilan kommunikatsiya qilinadi. Buning asosiy sababi alkogolli mahsulotlar hisoblangan vinoda ham reklama qilish imkoniyatlari cheklangan.

Jahon mamlakatlarining tajribalarida vinochilik mahsulotlari korxonalarining mahalliy va xorijiy bozorlarga chuqur kirib borish va egallashga qaratilgan branding strategiyalariga yuqori e'tibor qaratilmoqda. Uning asosiy tarkibiy elementlari sifatida mijozlar bilan munosabatlarda qadoqlashga ahamiyat qaratish, savdo markasini ilgari surish va kam quvvatli vino assortimentini yaratish, mijozlarga mahsulot ingrediyentlari haqida yanada to'liqroq tushunchalar berishga ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu vositalar orqali vinochilik mahsulotlari bozorida mijozlar bilan o'zaro munosabatlar yaratishning ommaviy reklamalarsiz, shaxsiylashtirilgan tajribalarni oshirishga qaratilgan marketing strategiyalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda mahalliy korxonalar uchun keng qamrovli marketing strategiyasini ishlab chiqish vino brendini samarali targ'ib qilish va uning bozorda o'sishini ta'minlash uchun branding strategiyalariga ahamiyat qaratilishi lozim.

Vino mahsulotlari bozorida mahalliy brendlarni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri ularning boshqa brendlardan farqlovchi xususiyatlarini mijozlar ongida shakllantirishga erishishidir. Brend strategiyasining ushbu asosiy elementlariga e'tibor qaratgan holda, vinochilik korxonalarini o'zlarini bozorda samarali joylashtirishlari, kuchli brend kapitalini yaratishlari va vino sanoatida uzoq muddatli muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Shunga ko'ra vinochilik mahsulotlarining qadoqlarida mahsulot ingrediyentlari, tabiiyligi va boshqa o'ziga xos jihatlarni onlayn kuzatish imkonini beradigan tizim yaratish lozim. Buning uchun marketingda mijozlar bilan munosabatlarni tashkil etishda keng qo'llaniladigan mobil marketingning asosiy strategiyasi hisoblangan QR kodlashtirish texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida spirt qo'shilmagan tabiiy uzum vinolari ishlab chiqarish hajmi 2019-2023-yillarda 1,32 barobarga, qiymat hajmida esa 3,37 barobarga oshgan. O'zbekiston Respublikasida spirt qo'shilmagan tabiiy uzum vinolari ishlab chiqarish hajmi 2019-2023-yillarda 1,32 barobarga, qiymat hajmida esa 3,37 barobarga oshgan. Eng yuqori o'sish Buxoro viloyatida kuzatilgan bo'lib, 2019-2023-yillarda tabiiy uzum vinolari ishlab chiqarish hajmi 6,0 barobarga oshgan, qiymat hajmida esa 21,47 marttaga oshgan. Toshkent viloyatida mazkur 2019-2023-yillarda tabiiy uzum vinolari ishlab chiqarish hajmi 4,04 barobarga, qiymat jihatdan esa 1,6 barobarga kamaygan (1-jadval).

Bozor mexanizmini shakllantirish muammolari ichki bozorni yuqori iste'mol sifatiga ega tovarlar va xizmatlar bilan to'yintirish, talab va taklif o'rtasidagi tarkibiy va assortimentdagi nomutanosiblikni bartaraf etish bilan chambarchas bog'liq. Vinochilik kompleksi oziq-ovqat bozori tarkibida salmoqli ulushga ega. Bu xaridorning iste'mol mahsulotlari tarkibida uzum yoki yuqori iste'mol qiymatiga ega

vino ekanligi bilan bog'liq. Shu o'rinda O'zbekistonda ham vino ishlab chiqaradigan bir qancha raqobatdosh korxonalar mavjud.

O'zbekiston hududida sharob savdolari bilan shug'ullanadigan korxonalar soni 100 dan ortiqni tashkil etadi. Toshkent shahrida eng ko'p ommalashgan va ko'plab savdo shahobchalardagi rastalardan o'rin olgan "Chardonnay", "Zulhumor", "Lagune", "L'amore", "Sonata", "Chateau Hamkor", "Rundweis", "Shirinchente", "Cabernet Sauvignon MSA" kabi vino turlari ommalashmoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida vino mahsulotlari ishlab chiqarish¹¹

Yillar	O'lchov birligi	Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari	Tarkibida 15 %dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari
2019-yil	Hajmi, ming dal	3972,8	20502,7
	ming so'm	19230561	71667296
2020-yil	Hajmi, ming dal	4131,9	19812,8
	ming so'm	26270120	82558130
2021-yil	Hajmi, ming dal	4188,2	17868,8
	ming so'm	32721482	93329627,5
2022-yil	Hajmi, ming dal	2479,1	17566,9
	ming so'm	30334078	108819887
2023-yil	Hajmi, ming dal	1504,2	17133,5
	ming so'm	22635079	123588684
2023-yilda 2019-yilga nisbatan	Hajmi {+/-}	37,86	83,57
	O'sish (%)	117,7	172,45

Bundan tashqari, Bagizagan va Hamkor brendining boshqa ko'plab vinolari ham raqobatdosh vinolar hisoblanadi. Bular qatoriga "Peri", "Bella", "Oreanda" vinolari keng tarqalgan. Bu vinolar eksportbop vinolar hisoblanadi. Jamiki vino iste'molchilarining 70 foizi asosan ushbu vinolarni xarid qilishadi (2-jadval).

2008-2023-yillarda alkogolning chakana savdosi 60 foizga oshdi, 18 va undan katta yoshdagilar uchun aholi jon boshiga 1,6 litrdan 2,6 litrgacha sof alkogol to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, alkogolli ichimliklarning umumiy savdosidagi kuchli spirtli ichimliklarning nisbiy ulushi 2008-yildan 2023-yilgacha 74% dan 89% gacha o'sdi, shu bilan birga, kam alkogolli ichimliklar ulushi xuddi shu davrda kamaydi: vino uchun 15% dan 3% gacha. Pivo uchun 11% dan 8% gacha. Bu JSSTning Yevropa mintaqasida kuzatilgan umumiy manzaradan farq qiladi, bu yerda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning pasayishida teskari tendensiya kuzatilgan. Shunga ko'ra O'zbekistonda kuzatilayotgan so'ngi tendensiya kuchli alkogolli ichimliklar iste'mol qilishning aholiga ko'proq zarar keltiruvchi xavfli ichimlik turi bilan bog'liqdir. O'zbekiston uchun alkogol mahsulotlari bo'yicha kiritilgan asosiy cheklovlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- spirtli ichimliklarni sotib olishning minimal yoshi 20 yil;
- spirtli ichimliklarni reklama qilish qisman taqiqlangan;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

alkogolli mahsulotlarning iste'mol qadoqlarida sog'liq uchun aniq ogohlantirishlar bo'lgan yorliqlar bo'lishi kerak.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida raqobatdosh uzum vino turlari va ularing o'rtacha bozor narxlari¹²

Brend vinolar	Vino markalari	Vino turlari	Vino narxlari (2023-y.)	Uzum navi	Sharob kolleksiyasi
"Bagizagan" AJ	Chardonay	Oq quruq	49500	Soyaki	20 dan ortiq
		Oq nimshirin	50000		
	Zulhumor	Qizil nimshirin	50000	Saperavi	
	Lagune	Qizil shirin	104000	Merlot	
"Hamkor" XK	L'amore	Oq quruq	100000	Soyaki	26
		Qizil quruq	100000	Pinot noir	
	Sonata	Oq quruq	63000	Cabernet	
	Chateau Hamkor	Qizil quruq	78000	Saperavi	
"Uzumfermer" XK	Rundweis	Oq quruq	120000	Soyaki	31
	Shirinchente	Pushti shirin	175000	Merlot	
	Cabernet Sauvignon MSA	Qizil quruq	160000	Cabernet Sauvignon	
"O'zbekiston shampani" AJ	Zarkent durdonasi	Qizil nimshirin	85000	Saperavi	30 dan ortiq
	Rkatsiteli	Oq quruq	92000	Rkatselli	
	Dolche Vita	Qizil quruq	78000	Pinot noir	

O'zbekistonda alkogolli ichimliklar ustidan nazoratning qonunchilik mexanizmlarini samarali amalga oshirilishi natijasida ichki iste'mol qisqarib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, 2016-yilda jami tovarlar chakana savdo aylanmasida alkogolli mahsulotlar ulushi 3,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 2,1 foizni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval

O'zbekistonda alkogolli mahsulotlar chakana savdo aylanmasi ulushi¹³

Yillar	Chakana savdo aylanmasi, mlrd. so'm	Jami tovarlar chakana savdo aylanmasidagi ulushi, %
2016	2349,2	3,3
2016	2667,2	3,1
2017	3134,8	3,1
2018	3818,1	3,0
2018	4094,3	2,9
2020	4286,4	2,5
2021	5028,5	2,2
2023	5604,2	2,1

¹² Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma tahlilidan olingan natija.

¹³ Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, vinochilikda ijtimoiy-axloqiy marketing vositalaridan foydalanish orqali korxonalarining bozordagi samarali harakatlarini tashabbuskor loyihalarga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu borada ilmiy uslubiy asoslar yaratish talab etiladi.

Ijtimoiy va axloqiy marketing konsepsiyasining asosiy yondashuvi maqsadli bozorlarning ehtiyojlari, istaklari va manfaatlarini aniqlash, iste'molchi va butun jamiyat farovonligini saqlab qolish hamda oshirishga qaratilgan samarali usullar bilan kerakli darajada qoniqishni ta'minlashdir. Ijtimoiy va axloqiy marketing konsepsiyasini amalga oshirish uchta omilning muvozanatini talab qiladi: ishlab chiqaruvchi tashkilotning foydasi (sanoat, davlat), sotib olish ehtiyojlari va jamiyat manfaatlari. Shuningdek, axloqiy marketingni beshta asosiy tamoyili mavjud, ular: shaffoflik, ijtimoiy mas'uliyat, mijoz ma'lumotlarini himoya qilish, inson huquqlariga rioya qilish, barqarorlik, mijoz qiymati.

Axloqiy marketing bo'yicha keltirib o'tilgan asosiy prinsiplarga moslik holatini barcha korxonalar amaliyotida foydalanish holatini tahlil qilish uchun baholash metrikalarini tuzish talab etiladi. Baholash uchun korxonalarining marketing MIKS amaliyoti bugungi mijozlar kutgan ijtimoiy samaralarga qay darajada javob berishini kuzatish orqali hal qilish mumkin.

Spirтли ichimliklar iste'molchilarini bir qator xususiyatlariga ko'ra, jumladan, vino mahsulotlarini afzal ko'rishlari, iste'mol qilish xatti-harakatlari va ichishga bo'lgan munosabatiga qarab turli toifalarga bo'lish mumkin. Bunday iste'molchilar guruhlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: Gurmanlar/Bilag'onlar, ichimliklarni ijtimoiy iste'mol qiluvchilar, o'rtacha ichuvchilar, og'ir ichuvchilar, tasodifiy ichuvchilar, sog'lik uchun ongli ichuvchilar, sarguzashtli ichuvchilar, spirтли ichimliklarni iste'mol qilmaydiganlar. Olib borilgan marketing tadqiqotlari natijalari shundan dalolat beradiki, barcha guruh iste'molchilar vino mahsulotlari iste'moliga nisbatan o'ziga xos axloqiy qoidalarni nazarda tutadi. Mazkur xulq-atvor xususiyatlarini yanada kengroq tushunish uchun dissertatsiya doirasida marketing tadqiqotlari amalga oshirilgan. Tadqiqotda anketa so'rovnomalariidan foydalanilgan va olingan statistik natijalar vino mahsulotlari iste'molchilari guruhlarning turli segmentlariga turlicha marketing strategiyalarini taklif etish uchun diskriminant tahlil usulidan foydalanilgan. Anketa quyidagi havola orqali onlayn yig'ilgan: <https://docs.google.com/forms/u/0/-?tgif=d&ec=asw-forms-hero-goto>. Anketa so'rovnomalari qariyb bir yil davomida onlayn yig'ilgan. Jami ishtirok etganlar 2000 nafardan ortiqni tashkil etgan. Respondentlarning eng kichik yoshi 21 yoshni, eng katta yosh esa 65 yoshni tashkil etgan. Ularning qariyb 25 foizini 27 yoshgacha bo'lganlar, 50 foizini 36 yoshgacha bo'lganlar, 75 foizini esa 46 yoshgacha bo'lganlar tashkil etgan. Tahlilni amalga oshirish uchun tanlangan o'zgaruvchilar bo'yicha olingan umumiy ahamiyatli statistika natijalaridan ma'lumki, barcha o'zgaruvchilar statistikasi yuqori ahamiyatli P (value) qiymatlari 0,05 ehtimollik bilan aniqlangan.

